

O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIDA BANK TIZIMLARINING ROLI

*Imomnazarov Kurshid Ozodboyevich
Namangan muhandislik-texnologiya
instituti tayanch doktoranti*

Annotasiya. Hozirgi vaqtida xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hisoblanadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi va uning iqtisodiyotdagi ulushi jahon iqtisodiyotidagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkich bilan tavsiflanadi. Ushbu ko'rsatkich asosida reytinglar aniqlanadi va taqqoslanadi. Ko'rsatkichga ijobjiy ta'sir ko'rsatadigan infratuzilma bank tizimlaridir. Ushbu maqolada bank tizimlari va kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish o'rtaidagi o'zaro bog'liqlik ko'rib chiqiladi. Bunda O'zbekiston Respublikasidagi ma'lumotlar asosida hisoblab chiqiladi. Xulosa o'nida tahlil natijalari va takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: bank, kredit, tadbirkorlik subyektlari

Abstract. Currently, the main link in the economy of foreign countries is small business and private entrepreneurship. The development of small business and private entrepreneurship and its share in the economy are characterized by the main macroeconomic indicator in the world economy. Based on this indicator, ratings are determined and compared. The infrastructure that has a positive effect on the indicator is banking systems. This article examines the relationship between banking systems and the development of small businesses and private entrepreneurship. It is calculated on the basis of data from the Republic of Uzbekistan. In place of the conclusion, the results of the analysis and suggestions are given.

Keywords: bank, credit, business entities

Kirish. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotini barpo etishning asosiy maqsadlaridan biri kichik biznesni ustuvor darajada rivojlantirishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish uchun bosqichma-bosqich iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda, kichik

biznesning rolini oshirish uchun yirik institutsional asoslar yaratildi. Kichik biznes faoliyatini tashkil etish, erkin faoliyat yuritish huquqiy-me'yoriy hujjatlarni kafolatlovchi, kichik biznesni qo'llab-quvvatlovchi bozor infratuzilmasi shakllantirildi. Buning samarasida bugungi kunga qadar mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha jabhalarida, mashinasozlik mahsulotlari ishlab chiqarishda, xalq iste'moli mollari, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda, xizmat ko'rsatish va turizm kabi yo'naliishlarda kichik biznes subyektlari faoliyat yuritmoqda. Mamlakatimizda qisqa vaqt ichida to'plangan tajribalarimiz kichik biznes barqaror iqtisodiy o'sishning muhim omili ekanini isbotladi. Xususan, mamlakatimiz iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan chuqur tarkibiy o'zgarishlar va diversifikatsiya sharoitida kichik biznes milliy iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, uning raqobatbardoshligini oshirish va yuqori makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga erishishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuning uchun juda ko'p mamlakatlar ayniqla iqtisodi rivojlangan davlatlar kichik biznes va tadbirdorkorlikning rivojlantirishga katta urg'u berishadi, muxit yaratishadi va rivojlanishni ta'minlovchi infratuzilmalarni ta'minlab berishadi.

Davlat asosiy ta'sir kuchlaridan biri bo'lган bank sistemalari orqali kichik biznes va xususiy tadbirdorkorlarni qo'llab quvvatlaydi. Bunda past foizli stavkalarda kredit ajratiladi, tijorat banklariga imtiyoz berish orqali tadbirdorkorlikni rivojlantirish uchun foiz stavkalariga pastlatish imtiyozlarini shakllantiradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirdorkorlik mamlakatimizning ustuvor yo'naliishi deb belgilangan. So'nggi besh yilda bu sohani rivojlantirishga qaratilgan ikki mingga yaqin qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi. Yana misol qilib 2021 yil avgust oyidan har yillik an'anaga aylangan prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning o'zbek tadbirdorkorlari bilan ochiq muloqot o'tkazishidir

Bu muloqotga asosan 114 ta litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi, 33 ta faoliyat turi xabardor qilish tartibiga o'tkazildi. Ruxsatnomalarning rasmiylashtirish tartibi soddallashtirilib, muddatlari o'rtacha ikki barobarga qisqartirildi. Ortiqcha tekshirishlar, naqd pul, valyuta vax om ashyo bo'yicha ko'plab cheklowlarga barxam

berildi. Bunday qulaylik va imkoniyatlар natijasida yangi tadbirkorlik subyektlari keskin ko'payib, avvaldan ishlayotganlari faoliyatini kengaytirmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Soxa olimlari kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab quvvatlovchi va turtki beruvchi bank infrastrukturasi bo'yicha turlicha ta'rif berishgan.

Tadbirkorlik ideologi hisoblangan XX asr buyuk iqtisodchisi Yozef Shumpeter: "Tadbirkorlikning jamiyat ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotidagi hal qiluvchi rolini u bo'limgan joyda juda his qilish mumkin" deb ta'kidlab o'tgan [8].

Kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal qilish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlash nuqtai-nazaridan juda dolzarb hisoblanadi. M.V.Mamutning xulosasiga ko'ra, kichik biznes subyektlarini mikrokreditlash amaliyotini rivojlantirish uchun banklar va nobank kredit tashkilotlarining mikrokredit operatsiyalari Markaziy bank tomonidan nazorat qilinmasligi kerak [9].

Nobel mukofotining sohibi, M.Yunusning xulosasiga ko'ra, endi ish boshlayotgan kichik biznes subyektlarini kreditlashda asosiy e'tibor kreditlashning ijtimoiy samarasiga qaratilishi kerak. Tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy imkoniyatlari kengaygandan so'ng, ular bozor stavkalarida beriladigan kreditlarga bo'lgan talabning oshishiga sababchi bo'lishadi [10].

F.Allen va D.Geyl kichik va o'rta biznes subyektlari faoliyatini moliyalashtirishning ikki tizimi – banklar faoliyatiga asoslangan tizim va moliya bozorlariga asoslangan tizimning mavjudligini e'tirof etishadi va bunda birinchi tizimning nisbatan muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlashadi [11].

Fikrimizcha, F.Allen va D.Geylning mazkur xulosasi o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, mazkur mamlakatlarda kichik biznesni kreditlash tizimida tijorat banklari yetakchi mavqega ega; ikkinchidan, kichik biznes subyektlari uchun qimmatli qog'ozlar bozori orqali resurslar jalb qilish imkoniyati mavjud emas.

Shanel-Reyno va Bluaning xulosasiga ko‘ra, kichik va o‘rta korxonalarning yirik korxonalar bilan aloqalarini yaxshi yo‘lga qo‘yilishi ularning tijorat banklari kreditlaridan foydalanish imkoniyatini oshiradi. Chunki, yirik korxonalar kichik va o‘rta korxonalar bilan ishbilarmonlik munosabatlariga kirishishdan oldin ularning bozor talablariga javob bera olishini tahlil qiladi. Shuningdek, yirik korxona hamkor bo‘lgan kichik va o‘rta korxonalarning holatini doimiy ravishda nazorat qiladi [12].

Rossiya iktisod fanlari nomzodi E.G.Azmanova xududiy banklarni innovationligi asosini tadbirkorlar va bank o‘rtasidagi o‘zaro ishons asosida barqaror va doimiy munosabatlar tashkil kilishi kerak deb xisoblaydi. Sun‘iy kreditlash ob‘ektlarining ko‘pligi (100 tagacha dasturlar) faqat sun‘iy parchalanishni yaratadi va qarz oluvchilarning to‘lov aylanmasini va moslashuvchanligini pasaytiradi [2].


J.Shanel-Reyno va E.Bluaning mazkur ilmiy xulosasi taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasining tahliliga asoslangan va shu jihatdan ishonchli hisoblanadi. Ular tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar aniq ma’lumotlar tahliliga asoslangan bo‘lib, yirik biznesning kichik va o‘rta biznes subyektlari faoliyatini rivojlanishida muhim rol o‘ynashini asoslashga xizmat qiladi. MakNotonning fikriga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun likvidli ta’minot vazifasini bo‘lg‘usi hosil o‘taydi. Ammo qurg‘oqchilik bo‘lsa, ular mo‘ljallangan miqdorda hosilni yig‘ishtirib olisha olmaydi. Shu sababli, bo‘lg‘usi hosil qurg‘oqchilikdan, tabiiy ofatlardan sug‘urtalangan bo‘lishi kerak [13].

Buning ustiga, bo‘lg‘usi hosilni ular tomonidan sug‘urta qilinganligi qurg‘oqchilikning yuz berishi natijasida olinmagan hosil tufayli yuzaga keladigan kredit riski muammosining chuqurlashishini oldini oladi. Ammo fikrimizcha, iqtisodchi olimlarning kichik biznes subyektlari faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirishga qaratilgan xulosalari, taklifi va tavsiyalarini respublikamiz amaliyotida qo‘llash imkoniyatlarini asoslab berish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.


Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada iqtisodiy statistika asosida tizimi tahlil, taqqoslash va muhokama metodlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasiga nazar tashlasak, davlatimiz iqtisodiyotidagi ulushning rivojlanish pallasi 2020-yilni ko'rish mumkin, lekin bu degani kichik biznes o'smayapti degani emas (1-rasm). Bunga misol qilib O'zbekistonda kichik korxonalar va mikrofirmalarni sonidan ko'rish mumkin. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni 2021 yili 23%, 2022 yili 12%, 2023 yili 14% ga o'sgan. Yangi tashkil qilingan mikrofirmalar, kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2021-yili 6% ga o'sgan, lekin 2022-yil 9% ga va 2023-yillarda 5%ga pasayganini ko'rish mumkin.

1-rasm. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2020-2024 yillar) [6]



2-rasm. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, 2020-2024 yillar) [6]




3-rasm. Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2020-2024)

[6]




O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlar asosida moliyalashtirish izchil amalga oshirilib borilyapti. Deyarli hamma banklarning web-saytlariga to'g'ridan to'g'ri murojaat qilish mumkin. Berilgan kreditlar sonini tahlil qilinganda 2022 yilda 12% ga pastlaganini ko'rish mumkin, lekin 2023-yilda 20% ga oshganini ko'rish mumkin.

4-rasm. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga berilgan kreditlar soni [7]



Bank sistemalarining faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, muammolar ham yo'q emas. Bunga misol keltiradigan bo'lsak, zamon shunday rivojlanyaptiki tadbirkorlarni moliyalashtirish tezkor ravishda amalga oshirish talab qilinadi. Hujjatlarni tayyor bo'lishi, ko'rib chiqilishi va kreditni o'tkazgungacha bo'lgan vaqt hozirgi davr talabiga javob bermaydi. Ayniqsa qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlarni misol uchun olishimiz mumkin. Bunda nazarda tutiladigan tezkor moliyalashtirish imkoniyatlarini hisobga olish zarur.

5-rasm. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga berilgan kreditlar summasi [7]



Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak bank tizimlari tadbirkorlarimizni qo'llab qo'vvatlab kelmoqda, lekin foiz stavkalarining balandligi banklar mijoz istash bilan emas, balki likvidligiga ega katta korxonalarga ko'proq

e'tibor qaratyapti. Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi takliflarlarni amalga oshirish lozim:

Birinchidan davlat bank tizimlariga imtiyoz berish orqali bank foiz stavkalarini pasaytirib tadbirkorlarimizni qo'llab quvvatlash mumkin.

Ikkinchidan tadbirkorlarni kredit olishidagi xujjatlar majmuini soddalashtirish kerak.

Uchinchidan banklarimiz innovatsion digital online xizmatlarini ko'paytirishi kerak. Anorbank, TBS bank bunga yaqqol misol bo'la oladi.

To'rtinchidan davlat va banklar tomonidan kraudlending P2B platforma infratuzilmalarni shakllantirishga yordam berish va platformalarni huquqiy asoslarini yaratish zarur.

Beshinchidan har bir viloyatlar uchun tadbirkorlar uchun maxsus jozibador kreditlar ishlab chiqish kerak.

REFERENCES.

1. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida tadbirkorlar bilan o'tkazilgan ochiq muloqot 18 avgust 2023 yil. <https://president.uz/oz/lists/view/6561>
2. Е.Г.Азмanova "Роль банков в развитии российского малого бизнеса" журнал Банковское дело 45(429)-2010.
3. Стивен Фрост "Настольная книга банковского аналитика" Днепропетровск: Баланс Бизнес Букс. 2006
4. Самадов А.Н., Останақулова Г.Н. Кичик бизнес ва тадбиркорлик. - Т.: Молияиқтисод, 2008.
5. М.Р. Болтабоев, М.С.Қосимова Кичик бизнес ва тадбиркорлик – Т.: NOSHIR, 2011.
6. O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi Statistika agentligi 2020-2024 yillar press relizlari
<https://www.stat.uz>
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki

<https://cbu.uz/uz/statistics>

8. Шумпетер Й. Теория экономического развития. -М.: “Эксмо”, 2007.
9. Мамут М.В. Микрофинансирование: новые возможности финансово-кредитной системы // “Банковское дело”. – Москва, № 4, 2009.
10. Юнус М., Жоли А. Создавая мир без бедности: социальный бизнес и будущее капитализма. Пер. с англ. – М.: “Альпина Паблишерз”, 2010.
11. Allen F., Gale D. Comparing Financial Systems. – Cambridge, Mass: “MIT Press”, 2000.
12. Chanel-Reynaud G., Bloy E. La Banque et le risqué PME – Presses Universitaires de Lyon, 2001.
13. МакНотон Д. Банковские учреждения в развивающихся странах. Пер. с англ. -М.: “ИЭР”, 1994.